



Energetika sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-014



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasining Milliy malaka ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash" sohasiga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. Tarmoq malaka ramkasi mazkur sohadagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi — elektr energetikasi tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini shakllantirish, shuningdek, tarmoqning strategik rivojlanish ustuvorliklarini inobatga olgan holda, Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yiladigan yagona talablarni belgilashdan iborat.

Shuningdek, tarmoq malaka ramkasi tarmoqlararo kompetensiyalarni hamda turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini hisobga olgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashni ta'minlaydi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy vazifasi — elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, jumladan elektr energiyasini turli manbalar (qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan) asosida ishlab chiqarish, uni iste'molchilarga yetkazishda yuqori va past kuchlanishli tarmoqlar orqali uzatish hamda taqsimlash bilan bog'liq kompleks faoliyat turlarini qamrab olgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy va istiqbolli texnologiyalarni inobatga olgan holda ishchilarning funksional harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

kasb – maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir faoliyat turi.

ko'nikma (mahorat) – shaxsning mehnat vazifani to'g'ri bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma'lum bir sharoitda avtomatik tarzda qo'llay olishi.

mas'uliyat va mustaqillik – ko'rsatkichi xodimning umumiy kompetensiyasini belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi. U guruh ichidagi ancha tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun ishlatiladi;

kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi;

elektr stansiyasi – elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan muhandislik inshooti bo'lib, gidroelektr, issiqlik, shamol yoki quyosh energiyasi asosida ishlaydi;

transformator podstansiyasi – elektr energiyasining kuchlanish darajasini o'zgartirish va taqsimlashni amalga oshiruvchi texnik inshoot;

generator – mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilma;

turbina – issiqlik yoki suv oqimining energiyasini mexanik aylanish energiyasiga aylantiruvchi mexanizm;

rele himoyasi va avtomatika – elektr tarmoqlaridagi avariya holatlarini aniqlash va avtomatik tarzda uskunalarni himoyalashga mo'ljallangan tizim;

energiya samaradorligi – elektr energiyasidan oqilona, tejamkor va samarali foydalanish darajasi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari – quyosh, shamol, suv, biomassa va boshqa tabiiy manbalardan olinadigan energiya turlari;

elektr energiyasini hisobga olish tizimi – ishlab chiqarilgan, uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi miqdorini o'lchash va nazorat qilish uchun mo'ljallangan vositalar majmuasi;

elektr uzatish liniyasi – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi manbadan iste'molchiga uzatish uchun mo'ljallangan havo yoki kabel liniyasi;

yuqori kuchlanish liniyasi – elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatishda ishlatiladigan, kuchlanishi 35 kV va undan yuqori bo'lgan elektr tarmog'i;

past kuchlanish tarmoqlari – elektr energiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘molchilarga yetkazib beruvchi 1000 V gacha bo‘lgan tarmoqlar.

elektr stansiyasi quvvati – elektr stansiyasining elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi maksimal imkoniyati;

elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlari – kuchlanish, chastota, garmonik tebranishlar va uzilishlar bilan bog‘liq parametrlar majmuasi;

elektr jihozlari ekspluatatsiyasi – elektr uskunalarini texnik holatini saqlash, ishlashini nazorat qilish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari;

avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi – elektr stansiyasi va tarmoqlardagi texnologik jarayonlarni avtomatik tarzda boshqaruvchi apparat-dasturiy kompleks;

energiya auditi – korxona yoki obyektida energiya iste‘molini tahlil qilish, yo‘qotishlarni aniqlash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni;

elektr xavfsizligi – elektr toki ta‘siridan inson va jihozlarni himoya qilishga qaratilgan texnik va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi;

energiya ta‘minoti tizimi – elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste‘molchiga yetkazib berishning yagona zanjiri;

elektr nazorat va boshqaruv panellari – stansiyalar va tarmoqlarda uskunalarining ish holatini kuzatish, sozlash va boshqarish uchun mo‘ljallangan panellar.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ-539-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-939-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-940-son qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atom energetikasini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3870-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4142-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4249-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4422-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi "Elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda texnika xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi "Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-54-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-iyuldagi "Yoqilg'i-energetika sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 426-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

IES – Issiqlik elektr stansiyasi;

GES – Gidroelektr stansiya;

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi – elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, suv, biomassa va geotermal energiya) samarali foydalanishni ta'minlovchi zamonaviy tarmoqdir.

Mazkur soha issiqlik va gidroelektr stansiyalarida energiya ishlab chiqarish, elektr tarmoqlarini boshqarish, transformatsiya va uzatish tizimlarini ekspluatatsiya qilish, muqobil energiya texnologiyalarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, energiya auditori hamda elektr xavfsizligini ta'minlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi, uy-joy kommunal xo'jaligi hamda ijtimoiy infratuzilmaning uzluksiz faoliyatida strategik ahamiyatga ega.

Ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar qatoriga energetik muhandislar, gidrotexnik va issiqlik inshootlari operatorlari, qayta tiklanuvchi energiya tizimlari texniklari, elektr tarmoqlari dispetcherlari, avtomatika va rele himoyasi mutaxassislari, energiya auditori bo'yicha mutaxassislar, shuningdek kiberxavfsizlik sohasida ishlovchi ekspertlar kiradi.

Elektr energetikasi va muqobil energiya sohasi xalqaro standartlar hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilib, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va xavfsizlik tamoyillariga tayangan holda rivojlantiriladi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash sohasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

D –Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasidagi faoliyat.

O'zbekiston Respublikasida Elektr energetikasi sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

No	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	D –Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasidagi faoliyat	35 Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasidagi faoliyat	35.1 Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash	35.11 Qayta tiklanmaydigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish	35.11.1 Issiqlik elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish
2					35.11.9 Boshqa qayta tiklanmaydigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish

3				35.12 Qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish	35.12.1 Hidro elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish
4					35.12.9 Boshqa qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish
5				35.13 Elektr energiyasini uzatish	35.13.0 Elektr energiyasini uzatish
6				35.14 Elektr energiyasini taqsimlash	35.14.0 Elektr energiyasini taqsimlash
7				35.15 Elektr energiyasini sotish	35.15.0 Elektr energiyasini sotish
8				35.16 Elektr energiyasini saqlash	35.16.0 Elektr energiyasini saqlash
9			35.3 Bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari	35.30 Bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari	35.30.0 Bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13212	Energiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va uzatish yo'nalish rahbarlari
2.	21411	Elektr energiyasini ishlab chiqarishni va uzatishni tashkil etish bo'yicha muhandislar
3.	21413	Avtomatlashtirish va nazorat bo'yicha muhandislar
4.	21414	Sifat nazorati bo'yicha muhandislar
5.	21419	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan sanoat va ishlab chiqarish sohasidagi muhandislar, b.g.k.
6.	21441	Muhandis-mexaniklar (umumiy)
7.	21496	Yadro texnologiyalari va xavfsizligi bo'yicha professional-mutaxassislar
8.	21511	Elektr energetika muhandislari (umumiy)

9.	21513	Issiqlik texnologiyalari bo'yicha muhandislar
10.	21514	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha muhandislar (yashil energetika)
11.	21519	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan energetika muhandislari, b.g.k.
12.	21521	Elektronika va nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha muhandislar
13.	21524	Nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha muhandislar
14.	31131	Texnik-elektriklar (umumiy)
15.	31132	Energetika sohasidagi texniklar
16.	31134	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha texniklar
17.	31141	Elektronika sohasida texniklar (umumiy)
18.	31145	Nazorat-o'lchov asboblari elektronikasi bo'yicha texniklar
19.	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy)
20.	31152	Ishlab chiqarishni tashkil etish va avtomatlashtirish bo'yicha texnik
21.	31159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan texnik-mexaniklar, b.g.k.
22.	31310	Elektr energiyani ishlab chiqarish qurilmalari operatorlari
23.	43222	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) bilan shug'ullanadigan dispetcherlar
24.	72333	Sanoat va texnologik uskunalarni sozlash va ta'mirlash
25.	72335	Elektr uskunalarini ta'mirlash uchun elektromontyorlar, chilangarlar va sozlovchilar
26.	74121	Elektromontyorlar (umumiy yo'nalish)
27.	74124	Elektrotexnika ishlab chiqarishida elektromontyorlar va elektromexaniklar
28.	74129	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyorlar va elektromexaniklar, b.g.k.
29.	74130	Elektr uzatish tarmoqlari elektromontyorlari
30.	81821	Qozonxona uskunalar operatorlari
31.	81822	Qozonxona operatorlari

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan energetika sohasini isloh qilish, tarmoq boshqaruvini samarali tashkil etish hamda bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati negizida elektr energetikasi zanjirining asosiy bo'g'inlari bo'yicha ixtisoslashgan mustaqil aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi.

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ mamlakatda elektr energiyasining asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Jamiyat issiqlik elektr stansiyalarini qurish, modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va energiya samaradorligini yaxshilash bilan shug'ullanadi.

"O'zbekgidroenergo" AJ gidroenergetika sohasida faoliyat yurituvchi milliy kompaniya bo'lib, uning asosiy vazifalariga amaldagi gidroelektr stansiyalarini

modernizatsiya qilish, yangi GESlarni qurish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushini oshirish kiradi.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ elektr energiyasini yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari orqali uzatish, magistral elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish va milliy energetika tizimining barqaror ishlashini ta‘minlash funksiyalarini bajaradigan markazlashgan operator hisoblanadi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ respublika hududlarida elektr energiyasini taqsimlash, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni uzluksiz elektr ta‘minoti bilan ta‘minlash, elektr energiyasi hisobini avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish tizimlarini joriy etish bilan shug‘ullanadi.

“O‘zenergosotish” AJ esa elektr energiyasini tijorat asosida sotish, yirik iste‘molchilar bilan shartnomalar tuzish va hisob-kitoblarni amalga oshirish vazifalarini bajaradi. Kompaniya elektr energiyasi bozorida savdo munosabatlarini shaffof va raqobatga asoslangan tarzda tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Mazkur institutsional islohotlarning asosiy maqsadi — elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va sotish jarayonlarini aniq funksional bo‘g‘inlarga ajratish orqali sohada samaradorlikni oshirish, shaffoflik va raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek energetika bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish hamda zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etishdan iborat.

So‘nggi yillarda mamlakatda an‘anaviy issiqlik va gidroenergetika yo‘nalishlari bilan bir qatorda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasi jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayonning huquqiy asosi sifatida “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda “yashil energetika” texnologiyalarini keng joriy etish uchun mustahkam institutsional va huquqiy asos yaratdi.

Natijada, quyosh, shamol va kichik gidroelektr stansiyalarini qurish, qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini mamlakat energiya balansidan bosqichma-bosqich oshirish hamda ekologik toza texnologiyalardan foydalanish davlat energetika siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning energetik xavfsizligini mustahkamlash, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash va energetika tarmog‘ining texnologik diversifikatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Energetika vazirligi tomonidan mamlakat elektr energetika tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy va innovatsion texnologik yechimlar asosida rivojlantirish maqsadida qator strategik dasturlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, xalqaro moliya institutlari — Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan mamlakatni yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta‘minlash konsepsiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, Buyuk Britaniya kompaniyasi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasining elektr energetika

tizimini, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya manbalarini qamrab olgan uzoq muddatli bosh reja (Master Plan) konsepsiyasining dastlabki loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu bosh reja konsepsiya asosida yoqilg'i-energetika ta'minoti strategiyasi hamda elektr energetika tarmog'ini raqamlashtirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. Dasturlar doirasida korxonalarda resurslarni rejalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari (ERP), shuningdek, dispetcherlik nazorati va ma'lumotlarni yig'ish tizimlari (SCADA) joriy etilmoqda. Bu chora-tadbirlar energetika sohasida raqamli boshqaruv tizimini shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Energetika sohasini rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlardan yana biri — issiqlik elektr stansiyalari, atom energetikasi va qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha ishlab chiqarish obyektlarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokida kengaytirish va modernizatsiya qilish hisoblanadi. Bu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik asosida qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublika miqyosida elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish hamda nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari joriy etildi. Xususan, 2021-yil boshiga qadar 7 milliondan ortiq iste'molchi zamonaviy elektr energiyasi hisoblagichlari, 3,5 milliondan ziyod xonadon esa tabiiy gaz hisoblagichlari bilan ta'minlandi. Bu tizimlar hisob-kitoblarning aniqligini oshirish, texnologik va tijorat yo'qotishlarni kamaytirish hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish imkonini berdi.

Energiya tejamkorlikni oshirish ham energetika sohasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Energetika vazirligi tomonidan energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, aholining energiya samaradorligi bo'yicha xabardorligini oshirish va samarali iste'mol madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zenergoinspeksiya" ma'lumotlariga ko'ra, har bir uy xo'jaligi yil davomida o'rtacha 400 kVt·soat elektr energiyasini tejash imkoniyatiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich respublika miqyosida jami 1,8 milliard kVt·soatni tashkil etadi. Mazkur hajm, masalan, Jizzax yoki Sirdaryo viloyatlarining yillik elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qoplash imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining elektr energiyasini ishlab chiqarish o'rnatilgan quvvati 14,1 ming MVtdan ortiqni tashkil etadi bo'lib, uning 85,8 foizi issiqlik elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. 2030-yilga kelib elektr energiyasiga bo'lgan maksimal talab 20 ming MVtgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlarini taxminan 1,8 barobarga oshirishni taqozo etadi.

2019–2030-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida issiqlik elektr stansiyalarida umumiy quvvati 15,6 GVt bo'lgan yangi va modernizatsiya qilingan energiya bloklarini ishga tushirish, shu bilan birga jismonan va ma'nan eskirgan 6,4 GVt quvvatlarni bosqichma-bosqich ekspluatatsiyadan chiqarish rejalashtirilgan. Xususan, Sirdaryo, Navoiy, Tolimarjon, Taxiatoch va To'raqo'rg'on

issiqlik elektr stansiyalarida yangi yuqori samarali energiya bloklarini qurish ko'zda tutilgan.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha 2030-yilga qadar quyosh, shamol va kichik gidroelektr stansiyalarining umumiy elektr energiyasi balansidan ulushini 21 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlar mamlakatning energetik xavfsizligini mustahkamlash, yoqilg'i importiga bo'lgan qaramlikni kamaytirish hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliy joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gidroenergetika sohasi

O'zbekiston Respublikasida gidroenergetika sohasi ustidan umumiy davlat boshqaruvi Energetika vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati sohaning asosiy operatori bo'lib, gidroelektr stansiyalarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish va modernizatsiya qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

Ayni paytda mamlakatda 30 dan ortiq gidroelektr stansiyalari faoliyat yuritmoqda bo'lib, ularning umumiy o'rnatilgan quvvati taxminan 2 000 MVtni tashkil etadi. Asosiy gidroenergetika obyektlariga Chirchiq-Bo'zsuv kaskadi, Andijon GES, To'palang GES va boshqa yirik stansiyalar kiradi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida joylashgan Sardoba suv ombori hududida quvvati 15 MVt bo'lgan mini-GES qurish rejalashtirilgan.

Gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi milliy elektr tarmog'iga "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ orqali ulanadi hamda energiyani uzatish va taqsimlash jarayonlari yagona dispetcherlik boshqaruvi asosida muvofiqlashtiriladi.

"O'zbekgidroenergo" AJ gidroenergetika sohasida markaziy tashkilot sifatida mavjud GESlarni boshqarish, yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilishda muhim o'rin tutadi. 2023-yilda Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi tomonidan jamiyatning kredit reytingi "B+" darajasiga ko'tarilishi uning moliyaviy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligi oshganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi 2030-yilga qadar gidroenergetika sohasida o'rnatilgan quvvatlarni 3 000 MVtga yetkazishni strategik maqsad sifatida belgilagan. Ushbu maqsadga erishish uchun yangi gidroelektr stansiyalarini qurish, shuningdek amaldagi GESlarni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida suv-energetika resurslaridan samarali va o'zaro manfaatli foydalanish, shu jumladan yangi gidroenergetika obyektlarini barpo etish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan Yovon GES quvvati 140 MVt bo'lgan, ikki davlat ishtirokidagi ilk yirik qo'shma loyiha hisoblanadi. Loyiha mintaqaviy energetik xavfsizlikni mustahkamlash, suv-agrar barqarorlikni

ta'minlash hamda transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Zarafshon daryosi havzasida gidroenergetika salohiyatini rivojlantirish maqsadida ikki bosqichda yangi GESlar qurilishi rejalashtirilgan:

1-bosqich — Yovon GES:

o'rnatilgan quvvati: 140 MVt;

yillik ishlab chiqarish hajmi: 832 mln kVt-soat;

loyiha qiymati: 282 mln AQSH dollari;

o'zini qoplash muddati: 15 yil.

2-bosqich — Fandaryo GES:

o'rnatilgan quvvati: 135 MVt;

yillik ishlab chiqarish hajmi: 560 mln kVt-soat;

loyiha qiymati: 270 mln AQSH dollari;

o'zini qoplash muddati: 20 yil.

Ikki loyiha bo'yicha umumiy yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 1,4 mlrd kVt-soatni tashkil etib, bu taxminan 600 mingga yaqin oilalarning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi. Qurilish ishlari davrida 3 000 ga yaqin mavsumiy ish o'rni, obyektlar ishga tushirilgandan so'ng esa 200 dan ortiq doimiy ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur gidroenergetika loyihalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilib, mamlakat energetika tarmog'ining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Issiqlik elektr stansiyalari faoliyati

"Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-son qarori hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2019-yil 26-apreldagi 1-son qarori asosida tashkil etilgan. Jamiyat mamlakatda issiqlik elektr stansiyalarini boshqarish, ularni modernizatsiya qilish, yangi yuqori samarali energiya bloklarini qurish hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun mas'ul bo'lgan markaziy ishlab chiqaruvchi tuzilma hisoblanadi.

Jamiyat tarkibida jami 11 ta korxona faoliyat yuritadi, shu jumladan:

4 ta issiqlik elektr stansiyasi;

3 ta issiqlik elektr markazi;

1 ta issiqlik markazi;

3 ta ixtisoslashgan pudrat tashkiloti.

Jamiyatning umumiy o'rnatilgan quvvati 6 663 MVt, amaldagi ishlab chiqarish quvvati esa 4 825 MVtni tashkil etadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda yoqilg'i samaradorligini ifodalovchi yillik shartli yoqilg'i sarfi 276,47 g/kVt-soat darajasida qayd etilgan.

Investitsiya faoliyati. 2024-yilda jamiyat tomonidan umumiy qiymati 3,22 mlrd AQSH dollari bo'lgan 11 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Moliyalashtirish manbalari quyidagicha taqsimlangan:

davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar — 445,6 mln dollar;
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar — 149,2 mln dollar;
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari — 50,5 mln dollar.
Asosiy yirik loyihalar qatoriga quyidagilar kiradi:

Tolimarjon IES — 900 MVt quvvatga ega bug'-gaz qurilmalari (687,6 mln dollar);

Navoiy IES — 650 MVt quvvatli yangi energiya bloki (632,1 mln dollar);

Toshkent IEM — 32 MVt gaz-turbina qurilmalari (102,6 mln dollar);

Energetika salohiyatini rivojlantirish (2-bosqich) — 284 mln dollar.

Qayta tiklanadigan energiya va "yashil energetika". Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish energetika sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil 10-iyun holatiga ko'ra quyosh va shamol energetikasi hisobidan 4 mlrd kVt·soat, 28-avgustga kelib esa 7 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Bu natijada 2,1 mlrd m³ tabiiy gaz tejallishi va 2,94 mln tonna SO₂ chiqindilarining kamayishi ta'minlandi.

Yirik "yashil energetika" loyihalari orasida 500 MVt quvvatli Zarafshon shamol elektr parki Markaziy Osiyodagi eng yirik obyektlardan biri hisoblanadi. 2025-yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy elektr energiyasi balansidan ulushini 40–50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Buxoro viloyati Olot tumanida quyosh energiyasini saqlash tizimini (BESS) joriy etish bo'yicha investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokida taqsimot elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, smart-meter tizimlarini joriy etish, shuningdek rele himoyasi va avtomatika tizimlarini yangilash ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Tarmoqda paydo bo'layotgan yangi kasblar.

Energetika tarmog'ida texnologik transformatsiya jarayonlari natijasida "Energiya saqlash tizimlari muhandisi" kabi yangi kasblar shakllanmoqda. Ushbu mutaxassis quyosh va shamol generatsiyasining o'zgaruvchanligini barqarorlashtirish maqsadida yirik quvvatli energiya saqlash tizimlarini (Battery Energy Storage Systems — BESS) joriy etish va ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullanadi.

Mazkur kasb doirasida mutaxassis:

invertorlar, Battery Management System (BMS) va Energy Management System (EMS) integratsiyasini loyihalash;

elektr yuklamalarini tiklash, tarmoq chastotasining barqarorligini ta'minlash;
avariya holatlarida zaxira quvvatni ishga tushirish;

batareya degradatsiyasi, sovitish tizimlari va xavfsizlik protokollarini boshqarish vazifalarini amalga oshiradi.

Ushbu kasb energetika sohasida raqamlashtirish, "yashil energetika" va barqaror rivojlanish talablariga javob beruvchi muhim yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Energiya auditi va energiya samaradorligi bo'yicha maslaxatchi. Sanoat zonalari, ta'lim va ilmiy kampuslar, shuningdek chekka hududlarda avtonom yoki gibrid energiya ta'minoti tizimlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi mazkur kasb ahamiyatini oshirmoqda. Mutaxassis tarmoqqa ulangan holda ishlovchi energiya boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqadi, energiya balansini tahlil qiladi va iqtisodiy samaradorlikni optimallashtiradi. Shu bilan birga tarif siyosati, talabga javob berish mexanizmlari (demand response) hamda amaldagi mahalliy me'yoriy-huquqiy talablarni inobatga oladi.

Energetika ma'lumotlari tahlilchisi (Energy Data Analyst). "Aqlli hisoblagichlar", sensorlar va raqamli platformalar orqali yig'iladigan katta hajmdagi ma'lumotlar asosida energiya ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlaridan qo'shimcha qiymat yaratadi. Mutaxassis yuklama prognozini tuzish, energiya yo'qotishlarini tahlil qilish, avariya ehtimolini baholash hamda quvvat sifati ko'rsatkichlarini modellashtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Business Intelligence (BI) platformalarida boshqaruv panellarini ishlab chiqadi, ma'lumotlar ishonchliligi va API integratsiyasini ta'minlaydi.

Atom elektr stansiyasida sifatni ta'minlash dasturi nazoratchisi. Ushbu mutaxassis atom elektr stansiyalaridagi barcha ishlab chiqarish va ekspluatatsiya jarayonlarining xalqaro standartlar (IAEA, ISO va boshqalar) talablariga muvofiq bajarilishini nazorat qiladi. Asosiy vazifalariga sifatni ta'minlash dasturini yuritish, texnik hujjatlar va hisobotlarni tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish hamda xavfsizlik va ekologik talablarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash kiradi. Ushbu lavozim atom energetikasida xavfsiz ishlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Energetikada kiberxavfsizlik muhandisi. Dispetcherlik va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini (SCADA, EMS, DMS) kiber tahdidlardan himoya qilishga mas'ul mutaxassis hisoblanadi. U elektr tarmoqlarini segmentatsiya qilish, kiberxavflarni monitoring qilish tizimlarini joriy etish, zaifliklarni tahlil qilish hamda kiberinsidentlarga javob berish protokollarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Mazkur kasb energetika infratuzilmasining raqamli barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Batareya texnologiyalari muhandisi. Elektromobillar va energiya saqlash tizimlari jadal rivojlanishi sharoitida ushbu mutaxassis zaryadlash stansiyalarini joylashtirish, quvvat taqsimoti va tarif siyosatini rejalashtiradi. U talabni modellashtiradi, optimal joylashuv variantlarini aniqlaydi hamda zaryadlash infratuzilmasining elektr tarmoqlari bilan uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlovchi muhandislik yechimlarini ishlab chiqadi.

Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha muhandis-texnolog. "Waste-to-Energy" yo'nalishida faoliyat yurituvchi mazkur mutaxassis chiqindilarni energiya manbai sifatida qayta ishlash texnologiyalarini (termik yondirish, biogaz ishlab chiqarish va boshqalar) loyihalashtirish bilan shug'ullanadi. U filtratsiya va emissiya nazoratini ta'minlaydi, chiqindilar logistikasini rejalashtiradi hamda

umumiy issiqlik va energiya balansini hisoblaydi. Ushbu kasb atrof-muhit muhofazasi va barqaror energetika siyosati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Aerovizual diagnostika operatori (dron operatori). Katta maydonli shamol turbinalari va quyosh fotoelektrik panellari joylashgan energetika obyektlarida aerovizual diagnostika ishlarini amalga oshiradi. Mutaxassis dron parvozlarini rejalashtiradi, termovizion va fotogrammetrik usullar orqali konstruktiv va ekspluatatsion nuqsonlarni aniqlaydi, tahlil natijalarini avtomatlashtirilgan hisobot shaklida tayyorlaydi. Ushbu kasb energiya obyektlarini tezkor, xavfsiz va samarali tekshirish imkonini yaratadi.

Quvvat elektronikasi bo'yicha muhandis. Invertor va konvertor qurilmalarini ishlab chiqish jarayonida zamonaviy yarimo'tkazgich elementlardan foydalanadi. Mutaxassis elektr sxemalarining topologiyasini tanlaydi, boshqaruv algoritmlarini sozlaydi, issiqlik chiqarish va sovitish tizimlarini hisoblaydi hamda ishonchlilik va barqarorlik bo'yicha sinovlarni amalga oshiradi. Ushbu lavozim yuqori samarali energiya uskunalari loyihalash va ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Talabga javob berish (Demand Response) bo'yicha dasturchi-tahlilchi. Iste'molchilarni yuklama cho'qqisi davrida energiya tejamkorlik choralariga jalb etish orqali elektr tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Mutaxassis shartnoma modellari va avtomatik trigger mexanizmlarini ishlab chiqadi, aloqa va monitoring tizimlarini tashkil etadi, shuningdek iqtisodiy samaradorlikni baholaydi. Ushbu faoliyat natijasida elektr energetika tizimida virtual quvvat zaxirasi shakllantiriladi.

Energiya saqlash tizimlarini tarmoqqa integratsiya qilish bo'yicha muhandis. Mini-gidroelektr stansiyalari, biogaz qurilmalari va boshqa tarqoq generatsiya obyektlarini milliy elektr tarmog'iga ulash va integratsiya qilish jarayonlarida ishtirok etadi. Mutaxassis texnik ulanish yechimlarini ishlab chiqadi, sinxronizatsiya va muhofaza parametrlarini belgilaydi, tarmoq barqarorligi va energiya sifati talablariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Tarmoqda yo'qolib borayotgan kasblar.

Raqamlashuv va avtomatlashtirish ta'sirida transformatsiyalanayotgan kasblar.

Stansiya mexanigi. An'anaviy xizmat ko'rsatish va qo'lbola nazoratdan sensorlarga asoslangan aqlli diagnostika va masofadan boshqaruv tizimlariga o'tish amalga oshirilmoqda. Zamonaviy stansiya mexanigi endilikda algoritmlar, signal parametrlari va prognozli xizmat ko'rsatish (predictive maintenance) modellari tayanadi.

Dispatcher. Qog'oz jurnallar va qo'lda rejalashtirish o'rnini real vaqt rejimida ishlovchi raqamli dispatcherlik platformalari egalladi. Mutaxassis elektr tizimini optimallashtirish, yuklamalarni balanslash va avariylarni oldindan prognoz qilish vazifalarini avtomatlashtirilgan vositalar orqali bajaradi.

Rele himoyasi va avtomatika mutaxassisi. Elektromexanik relelardan raqamli IED qurilmalariga o'tish jarayonida mutaxassis PMU (synchrophasor) va WAMS tizimlari bilan ishlaydi, masofadan test qilish va model asosidagi sozlash usullarini

qo'llaydi. Bu yo'nalishda dasturiy-apparat integratsiya asosiy kompetensiyaga aylanmoqda.

Energetik texnik. Oddiy ta'mirlash ishlaridan tashqari, energiya auditi, ISO 50001, LCCA (hayotiy sikl xarajatlari tahlili) va retrofit loyihalarida ishtirok etish talab etiladi. Bu o'zgarish energiya yo'qotishlarini kamaytirish va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan.

Loyihachi-energetik. Yagona energiya manbasiga asoslangan yechimlar o'rnini gibrid tizimlar (RES + BESS + grid) egallamoqda. Mutaxassisdan quvvat sifati, tranzient jarayonlar, grid-code talablari va tarmoqqa integratsiya bo'yicha chuqur bilim talab qilinadi.

Qozonxona mutaxassisi. An'anaviy yonish jarayonlariga asoslangan ish uslubi o'rnini issiqlik nasoslari, rekuperatsiya tizimlari va elektrlashtirilgan issiqlik yechimlari egallamoqda. Asosiy e'tibor issiqlik balansini optimallashtirishga qaratilgan.

Aktivlar monitoringi muhandisi (texnik nazorat asosida). Vizual ko'rikka asoslangan nazorat o'rniga dronlar, termovizorlar va onlayn sensorlar orqali aktivlar holatini monitoring qilish joriy etilmoqda. Qarorlar ma'lumotlar tahlili asosida qabul qilinadi.

Texnologik o'zgarishlar natijasida ahamiyati pasayib borayotgan kasblar.

Ko'mir yoqilg'i operatori. Ko'mir ulushining qisqarishi va emissiya talablarining kuchayishi sababli ushbu kasbga bo'lgan ehtiyoj izchil kamaymoqda.

Qo'lda o'lchovchi energiya nazoratchisi. "Aqlli hisoblagichlar" va masofaviy ma'lumot o'qish texnologiyalari joriy etilishi natijasida qo'lda ko'rsatkich yig'ish amaliyoti deyarli tugatilmoqda.

Dizel-generator operatori (yirik tarmoq qamrovli hududlarda). Tarmoqqa ulangan rezerv yechimlar va energiya saqlash tizimlarining iqtisodiy jihatdan afzal bo'lishi natijasida an'anaviy dizel zaxira generatorlariga ehtiyoj kamaymoqda.

Elektromexanik rele sozlovchisi. Raqamli rele himoyasi tizimlariga o'tish jarayonida elektromexanik relalarga oid ko'nikmalar faqat cheklangan sohalarda saqlanib qolmoqda va bosqichma-bosqich ahamiyatini yo'qotmoqda.

Qozonxonada qo'lda pech yoquvchisi. Avtomatik burnerlar, past uglerodli issiqlik tizimlari va issiqlik nasoslari keng joriy etilishi natijasida qo'lda yoqish amaliyoti keskin qisqarmoqda.

Stansiya telefonchisi. Yagona raqamli aloqa panellari va integratsiyalashgan dispetcherlik platformalari qo'lda ulash va yo'naltirish funksiyalarini to'liq bekor qildi.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati.

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi.

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
2.	11200009	Direksiya direktori va o'rinbosarlari
3.	11200010	Direktor va o'rinbosarlari
4.	11200014	Ijrochi direktor va o'rinbosarlari
5.	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
6.	12112012	Xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i (mudiri)
7.	13111013	Bosh muhandis-gidrotexnik
8.	13211014	Bosh muhandis
9.	13211015	Bosh muhandis-mexanik
10.	13211018	Bosh texnik rahbar
11.	13211029	Ishlab chiqarish-dispatcherlik sexi byurosi boshlig'i
12.	13211034	Mexanika-ta'mirlash ustaxonasi boshlig'i
13.	13211040	Ta'mirlash ustaxonasi (ta'mirlash-mexanik ustaxonasi) boshlig'i
14.	13211041	Ta'mirlash ustaxonasi boshlig'i (mudiri)
15.	13211043	Texnik rahbar
16.	13211044	Ustaxona boshlig'i
17.	13212001	Abonement mudiri
18.	13212002	Abonentlar bo'limi boshlig'i
19.	13212003	Atom stansiyalari jihozlari ta'mirlash va sozlash, ishlab chiqarish birlashmasi bosh turbinisti
20.	13212004	Birlashgan energoxizmat boshlig'i
21.	13212005	Bosh dispatcher (elektr ta'minoti, gaz, bug' va havo konditsionerlashda)
22.	13212006	Bosh elektrik
23.	13212007	Bosh elektromexanik
24.	13212008	Bosh energetik
25.	13212011	Bosh muhandis (elektr ta'minoti, gaz, bug' va havo konditsionerlashda)
26.	13212012	Bug' xo'jaligi boshlig'i
27.	13212013	Dispatcherlik xizmati boshlig'i (mudiri)
28.	13212014	Elektr podstantsiya boshlig'i
29.	13212015	Elektr stansiya sexi smena boshlig'i
30.	13212016	Elektr stansiya smena boshlig'i
31.	13212017	Elektr stansiyasi boshlig'i
32.	13212018	Elektr ta'mir sexi ustasi
33.	13212019	Energetik jihozlarni ta'mirlash va sozlash ishlari rahbari
34.	13212020	Energoinspeksiya boshlig'i
35.	13212021	Energoxizmat boshlig'i
36.	13212023	Issiqlik elektr stansiyasi direktori (boshlig'i)
37.	13212024	Jihozlarni sinovdan o'tkazish va rejim sozlash rahbari
38.	13212026	Qozonxona boshlig'i (direktori)

